



TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI: KOGNITIV LINGVISTIKA VA UNING JAMIYATGA TA'SIR TENDENSIYALAR

Abdiraximova. G.J

Samarqand davlat chet tillar instituti

Sharq tillari fakultet

1-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada kognitiv lingvistikaning shakllanish jarayoni, uning asosiy nazariy tamoyillari, konseptual tizim, kognitiv metafora, freym semantikasi va kognitiv semantika kabi yo'nalishlarning mazmun - mohiyati ilmiy jihatlardan tahlil qilinadi. Shuningdek, kognitiv yondashuvning tilshunoslikdagi metodologik ahamiyati va amaliy qo'llanish sohalari yoritiladi

Kalit so'zlar: Kognitiv lingvistika, konsept, konseptosfera, kognitiv metafora, freym, idrok, kognitiv grammatika, til tafakkur munosabati.

Kirish. 20-asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda formal va struktural yondashuvlardan farqli yangi paradigmaning shakllanishi kuzatiladi.

Ushbu paradigma -kognitiv lingvistika bo'lib, tilni inson ongining asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. Kognitiv yo'nalish til birliklarini ularga xos semantik, psixologik va konseptual asoslar bilan birga o'rganishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuvning shakllanishida G.Lakoff, R.Langacker, Ch.Fillmore, M.Jonson kabi olimlar muhim rol o'ynagan. Bundan tashqari Leonard Talmy, Vyacheslav Evans, E.Kubrayakova, N.Boldirev kabi insonlarning olib borgan izlanishlari va tadqiqotlari ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Kognitiv lingvistika tilning o'ziga xos strukturaviy xususiyatlaridan tashqari mano yaratilishi jarayonining ongdagi modellar bilan bog'liqligini o'rganadi.

Kognitiv lingvistikaning nazariy asoslari

Kognitiv lingvistika inson tafakkuri ijod jarayoni va til o'rtasidagi bog'liqligini markaziy o'ringa qo'yadi. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat

1. Til-tafakkurning mahsuli :til birliklari inson ongida shakllangan konseptual bilish jarayonlarini aks ettiradi.

2. Ma'noning konseptual tabiatliliigi :ma'no mutlaq emas, balki uni qo'llash holatiga ko'ra talqin qilinadi.

3. Konseptual kategoriyalash :inson dunyoni kategoriyalar yordamida idrok qiladi va bu kategoriyalar til orqali ifodalanadi.

4. Metafora -kognitiv jarayon : Metafora nafaqat stilistik figura, balki fikrlashni tashkil etuvchi konseptual mexanizm sifatida qaraladi.

Konseptual tizim va konseptosfera



Kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridan biri -konsept bo‘lib u insonning dunyo haqidagi bilimi , tajribasi va assotsiativ tasavvurlarining tilga muayyan shaklda ko‘chgan butunlashgan modeli sifatida izohlanadi.Jamiyatning konseptual dunyo manzarasini esa konseptlar majmui-konseptosfera tashkil etadi.Har bir yil o‘ziga xos konseptosferaga ega bo‘lib milliy mentalitet , madaniyat,qadriyatlar unda aks etadi .

Kognitiv Metafora nazariyasi

G.Lakoff va M.Jonson tomidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi inson tafakkurida abstrakt tushunchalarning ko‘pincha konkret tajriba asosida shakllanishini isbotlaydi.Masalan, “hayot-yo‘l” ,”vaqt - pul “kabi metaforalar inson ongidagi kognitiv modellarni ifodalaydi.Ushbu nazariya tilshunoslik, psixologiya, reklama, kommunikatsiya kabi ko‘plab sohalarda qo‘llanadi .

Freym Semantikasi

Ch.Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan freym nazariyasi so‘z ma‘nosini tilshunoslik uchun faqat uning lug‘aviy mazmuni yetarli emasligini,balki u bilan bog‘liq konseptual ssenariylar -freymlar mavjudligini takidlaydi . Masalan,” restoran”freymi “buyurtma qilish” ,”menyu”,”hisob to‘lash “kabi ssenariy elementlarini o‘z ichiga oladi.

Kognitiv grammatika

R.Langacker kognitiv grammatikani tilning strukturaviy emas , balki ma‘no markazli tizim sifatida talqin qiliadi . Uning fikricha gramatik shakllar ham konseptualizatsiya natijasida vujudga keladi. Ya‘ni gramatik birliklar inson ongida mavjud bo‘lgan kognitiv sxemalarning til orqali ifodalanishidir.Shuningdek ,”Gramatika inson idrokidagi konseptual tuzilmalarni turidan to‘g‘ri aks ettiradi .Til tizimi - inson ongining funksional ma‘noga yo‘naltirilgan modeli.”(Foundation or Kognitiv Grammar ,1987) Bu yondashuv jamiyatda lug‘aviy va grammatik birliklarni ong faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganishga kuchli turtki bergan.

Kognitiv lingvistikaning amaliy ahamiyati

Kognitiv lingvistikaning qo‘llanishi keng:

- til o‘qitish metodlarida tushunishga asoslangan yondashuvni shakllantiradi .
- Sun‘iy intellekt,kompyuter lingvistikasi ,mashina tarjimasida semantik modellarni chuqurroq qurishga yordam beradi .
- Matn va nutq tahlilida yaxlit konseptual strukturalarni aniqlash imkonini beradi.
- Psixolingvistika ,neyrolingvistika ,diskurs tahlili kabi yo‘nalishlar bilan integratsiyani rivojlantiradi

.•Vyacheslav Evans -zamonaviy kognitiv lingvistlar yetakchisi til va o‘ng o‘rtasidagi munosabatni quyidagicha tushuntiradi.”Til tizimi kognitiv tajribaning mahsuli bo‘lib ,u insonning konseptual dunyo manzarasini shakllantirishda asosiy omildir.”(Kognitiv Linguistics :An Introduction ,2006)

Xulosa. Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning eng muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur ilmiy asosda yoritadi. Ushbu yo‘nalish tilni faqat strukturaviy birliklar tizimi sifatida



emas,balki insonning konseptual dunyo manzarasini aks ettiruvchi dinamik tizim sifatida talqin qiliadi.Kognitiv yondashuvning rivojlanishi tilshunoslik faniga yangi metodologik imkoniyatlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Lakoff.G.Jonhson ,M.Metaphors we Live By.-chicago :university of Chicago press.1980.
- .Langacker .R.W.Foundation of Cognitiv Grammar.Vol.1-2.-Stanford University press,1987-1991.
- Fillmore. C.J .”Fillmore Semantics “ Annals of the New York Academi of Sciences,1976
- Evans,Va.Green .M.Cognitiv Linguistics :An Introduction.-Edinburgh :Edinburhh University Press 2006.
- Boldyrev ,N.N.Kognitivnaya linguistika -Moskva :Vysshaya shkola.2015
- Ahmedova.D,Rasulov .R.Kognitiv lingvistika asoslari .-Toshkent :fan 2019.
- Hojiyev .A.Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent : O‘zbekiston milliy Ensiklopediyasi;2010.